

Uzbekistan Airways Moskvada bo'lib o'tgan MITT-2024 xalqaro sayyohlik ko'rgazmasida ishtirok etdi

2024 25 Mart

19-21 mart kunlari Uzbekistan Airways O'zbekiston Respublikasi milliy stendi tarkibida Moskvada bo'lib o'tgan 30-xalqaro turizm va mehmondo'stlik sanoati ko'rgazmasida ishtirok etdi.



Aviakompaniya xodimlari mahalliy biznes va turizm sohasi vakillari bilan bir qator uchrashuvlar o'tkazildilar, O'zbekistondagi madaniy va tarixiy turizmning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berildi, shuningdek, respublikaga potensial sayyohlarni jalb qilish bo'yicha ishlar olib borildi.















